

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.09/31.08.2022.I.151.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**XOLMUMINOV ZIYADULLA AMIROVICH**

**MAMLAKAT EKSPORT SALOHIYATINI MOLIYAVIY VOSITALAR  
ORQALI RIVOJLANTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahar – 2023-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Xolmuminov Ziyadulla Amirovich**

Mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish ..... 3

**Холмуминов Зиядулла Амирович**

Развитие экспортного потенциала страны посредством финансовых инструментов ..... 29

**Kholmuminov Ziyadulla Amirovich**

Development of the country's export potential through financial instruments ..... 55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 61

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.09/31.08.2022.L.151.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**XOLMUMINOV ZIYADULLA AMIROVICH**

**MAMLAKAT EKSPORT SALOHIYATINI MOLIYAVIY VOSITALAR  
ORQALI RIVOJLANTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahar – 2023-yil**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2021.4.Phd/Iqt.1913 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent moliya institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bfa.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Kuziyeva Nargiza Ramazanovna  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:** Xoshimov Elmurod Abdusattorovich  
iqtisodiyot fanlari doktori  
Ashurova Nasiba Batirovna  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** G.V. Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universitetining  
Toshkent shahridagi filiali

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi DSc.09/31.08.2022.I.151.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «6» «05» kuni soat 11:30 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnahr ko'chasi, 16-uy. Tel.: faks: (+ 998 71) 237-53-56; e-mail: office@bfa.uz

Dissertatsiya bilan Bank-moliya akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnahr ko'chasi, 16-uy. Tel.: faks: (+ 998 71) 237-53-56; e-mail: office@bfa.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «28» «04» kuni tarqatildi.  
(2023-yil «28» da) 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.A. Xusainov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi

S.E. Elmirzayev  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutuvchi mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, mamlakat raqobatdoshligi integratsiyani chuqurlashtirishning yangi metodlarini qo‘llash asosida mamlakat eksport salohiyatini oshirishga bevosita bog‘liq. «Dunyo bozoriga eksport qilingan nomoddiy mahsulotlarning 36 foizi AQSh, 30 foizi Yaponiya, 22 foizi Xitoy davlatiga to‘g‘ri keladi. Har bir million aholi soniga nisbatan innovatsion mahsulot eksportida band bo‘lgan ilmiy xodimlar soni bo‘yicha 1-o‘rinda Isroil 8250 nafar, 2-o‘rinda Janubiy Koreya 7113 nafar, 3-o‘rinda esa Yaponiya 5210 nafarni tashkil etadi»<sup>1</sup>. Bu esa faol, intensiv eksportning ustuvor ko‘rinishi bo‘lmish samarali innovatsion mahsulotlar eksporti hajmi oshirishini rag‘batlantirish tizimini shakllantirish va rivojlantirish singari muhim masalalarni hal etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Jahonda eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning konseptual asoslarini yoritib berish hamda takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Eksport salohiyatini davlat tomonidan boshqarishning asosiy modellari, eksportchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali moliyaviy vositalari – eksport operatsiyalarini moliyalashtirish, kreditlash, eksimbanklar va eksport-kredit agentliklari faoliyatini rivojlantirish, sug‘urtalash va kafolatlash, soliq imtiyozlari, subsidiyalash, kichik biznes eksportiga ko‘maklashish, innovatsion eksportni rag‘batlantirish singari zamonaviy uslub, vosita va manbalardan foydalanishning real imkoniyatlari hamda ko‘lamini oshirish orqali mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish tizimining zamonaviy modeli ishlab chiqarish quvvatlari va keng turdagi xomashyo, shuningdek, mehnat resurslari mavjud bo‘lgan hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta‘minlovchi afzalliklardan to‘liq hajmda foydalanish, eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalarini rivojlantirish, eksportoldi va eksportni moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish, uzoq muddatli barqaror tashqi bozorlarni shakllantirish va xorijda tashqi savdo infratuzilmasini yaratish, har xil xizmat turlari eksportini tashkil qilish va ilgari surish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, ularni ko‘rsatish uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish hamda eksport salohiyatidan keng va samarali foydalanish, eksport tarkibidagi ijobiy tendensiyalarni ta‘minlash, eksportning xomashyo eksporti va davlat buyurtmalarini majburiylik asosida ijro etishga asoslangan ekstensiv va passiv turidan uning faol, intensiv turiga o‘tishga asoslanadi. Bu jarayon mamlakatimizning jahon bozorida o‘zining tegishli o‘rnini egallashi va o‘zining eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga ko‘ra rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori sifatida xizmat qiladi. Mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning muhim ahamiyatiga qaramay, uning ko‘pgina nazariy va amaliy jihatlarini

<sup>1</sup> Итоги мирового экспорта результатов инновационной деятельности. <https://www.worldbank.org>. 08-8765-45.

takomillashtirish dolzarb hisoblanadi va ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktabrdagi PF-6091-sonli «Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2018-yil 20-dekabrdagi PQ-4069-sonli “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4949-sonli «2021-yilda O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi 373-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2021-yil 30-martdagi 167-sonli “O‘zbekiston Respublikasida eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi to‘g‘risida”gi Qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligini va hal etilishi kutilayotgan ilmiy-amaliy ahamiyatga molik muammoga bag‘ishlanganligini tasdiqlaydi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ITD-2 «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» loyihasi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali qo‘llab-quvvatlashning ayrim jihatlari, jumladan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligini aniqlashdagi muammolar xorijlik iqtisodchi-olimlar D.Janturg, L.Lag, D.Montgomer, T.Singer, M.Stefans, D.Smalridge, M.Kotabe, M.Sinkota, A.Panagariya, T.Belousova, S.Prixodko, A.Spartak, Y.Kinjebayeva, A.Migunov, S.Strekalov, T.Urumov<sup>2</sup>ning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

---

<sup>2</sup> Белоусова Т.А. Современная практика страхования экспортных кредитов в странах ЕС. // Финансовый журнал. 2015. № 3. С. 91-97; Кинжебаева Е.В. Налоговые инструменты государственного регулирования экспорта в современной международной торговле. Авт. дисс. на соиск. уч. степ. к.э.н. – Екатеринбург. 2012. – 28 с.; Мигунов А.Ю. Средства финансовой поддержки экспорта в международной торговле и возможности их использования российскими предприятиями. Авт. дисс. на соиск. уч. степ. к.э.н. – М., 2008. – 28 с.; Стрекалов С.В. Механизм управления внешнеэкономической деятельностью промышленных предприятий в условиях цифровой экономики. Авт. дисс. на соиск. уч. степ. к.э.н. – М., 2020. – 28 с.; Урумов Т.Р. Государственная поддержка экспортной деятельности малого и среднего бизнеса: мировая практика и выводы для России. Авт. дисс. на соиск. уч. степ. к.э.н. – М., 2018. – 28 с.; Приходько С.В. и др. Стимулирование экспортной деятельности в зарубежных странах и практика поддержки экспорта в России. – М., 2007. – 432 с.; Спартак А.Н. Мировой и российский экспорт: тенденции и перспективы развития, системы поддержки. Монография. / Хохлов А.В., Французов В.В. 2015. – 376 с.; Singer T.O. The role of export promotion in export management: The case of the Minnesota trade office. 1991. – 312 p.; Kotabe M., Czinkota M.R. State government promotion of manufacturing exports: agapanalysis. // Journal of international business studies. 1992. T. 23. №. 4. Pp. 637-658; Panagariya A. Evaluating the case for export subsidies [Электронный ресурс]. /

Eksport faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarining moliyaviy masalalari, soliqqa tortishda mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning ayrim jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi-olimlari A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, N.G.Muminov, N.X.Jumayev, E.F.Gadoyev, J.I.Karimqulov, N.R.Kuziyeva, T.S.Malikov, Sh.I.Mustafaqulov, I.M.Niyazmetov, A.A.Ostonoqulov, M.A.Raimjonova, B.E.Toshmurodova, N.X.Xaydarov<sup>3</sup>ning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

So'nggi yillarda eksportga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilayotgan bo'lib, tadqiqot ishi davomida MDH olim va mutaxassislaridan T.Urumov, A.Chertkov, N.Shkolyar<sup>4</sup>, shuningdek, xorijiy olim va mutaxassislardan J.Lov, S.Roper, K.Martins, V.Martins, J.Karballo, P.Garsia, V. Vezebroek, J.Koning<sup>5</sup> va boshqalarning bu boradagi ilmiy ishlari o'rganildi va tahlil qilindi.

O'zbekistonda mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo'llarini o'rganish nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar ilk izlanishlar hisoblanadi.

Mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish tizimini takomillashtirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari G.Y.Tajenova, F.X.Axmedov, X.M.Kulimova, D.E.Qarshiyev<sup>6</sup> singari mualliflarning himoya qilingan tadqiqotlarida

---

World Bank Policy Research Working Paper No. 2276, University of Maryland. Department of Economics, 2000. – 40 p. Режим доступа: <http://documents.worldbank.org/curated/en/836621468750545367/pdf/multi-page.pdf> (дата обращения: 22.11.2022); Stephens M., Smallridge D. A study on the activities of IFIs in the area of export credit insurance and export finance. // BID-INTAL, 2002. Т. 16; Lages L.F., Montgomery D.B. Export assistance, price adaptation to the foreign market, and annual export performance improvement: A structural model examination. // Graduate School of Business, Stanford University, 2001. Pp. 88-108; Gianturco D.E. Export credit agencies: the unsung giants of international trade and finance. – Greenwood Publishing Group, 2001. – 419 p.

<sup>3</sup> Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. – 180 b.; Jumayev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007. – 286 b.; Гадоев Е.Ф., Кузиева Н.Р. Особенности налогового режима в свободных экономических зонах Узбекистана. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2018 yil. – 154 s.; Karimqulov J.I. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. I.f.d. (DSc) ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. avtoref. – T.: 2019. – 78 b.; Malikov T.S. Moliya. – T.: Iqtisod-moliya, 2018 yil. – 268 b.; Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya, 2001. – 326 b.; Niyazmetov I.M., Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – T.: 2016. 72-b.; Ostonoqulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. 08.00.08. I.f.d. (PhD) ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. avtoref. – T., 2017; Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslar, hozirgi holati va istiqbollari. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2001. – 326 b.; Toshmurodova B.E. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 128 b.; Xaydarov N.H. Moliya. 1-qism. – T.: Akademiya, 2001. – 185 b.

<sup>4</sup> Урумов Т.Р. Эффективность государственной финансовой поддержки экспортной деятельности малых и средних предприятий. // Актуальные проблемы экономики и права. 2017. № 1. С. 51-62; Чертков А. Ставка на экспорт. // Эксперт. Северо-Запад. 2017. № 12-13; Школяр Н.А. Корректировка системы поддержки экспорта: принципы и подходы. // Российский внешнеэкономический вестник. 2014. Т. 2014. № 2. С. 45-52.

<sup>5</sup> Love J.H., Roper S. SME innovation, exporting and growth: A review of existing evidence. // International small business journal. 2015. Т. 33. № 1. Pp. 28-48; Martincus C., Carballo J., Garcia P. Firm size and the impact of export promotion programs. // Applied Economic Letters. 2010. Т. 18. Pp. 127-32; Van Biesebroeck J., Konings J., Volpe Martincus C. Did export promotion help firms weather the crisis? // Economic Policy. 2016. Т. 31. № 88. Pp. 653-702.

<sup>6</sup> Таженова Г.Е. Кишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспортини молиялаштириш амалиётини такомиллаштириш. И.ф.д. (PhD) илм. дар. ол. учун ёз. diss. автореф. – Т., 2020; Ахмедов Ф.Х. Ўзбекистонда тижорат банкларининг ташқи савдога хизмат кўрсатишини такомиллаштириш. И.ф.д. diss. автореф. 2021. – 48 б.; Кулимова Х.М. Экспорт-импорт операцияларида солиқ назоратини

o'z ifodasini topgan.

Mazkur ilmiy ishlarda eksport operatsiyalarini moliyalashtirish, kichik biznes eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, eksportga ko'rsatiladigan turli-tuman moliyaviy xizmatlar, shuningdek, eksport-import banklari va eksport kredit agentliklari faoliyatini rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Biroq ularda O'zbekiston sharoitidan kelib chiqqan holda tadqiqot olib borilmaganligi tadqiqot ishining O'zbekiston nuqtayi nazaridan bu ishlarning davomchisi bo'lishiga imkon yaratadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent moliya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining ITM-3 «Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq holda bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

eksport salohiyatining nazariy jihatlari va uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirishning asosiy modellarini tahlil qilish;

O'zbekistonda eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlarini o'rganish;

mamlakatda eksport salohiyatini oshirish va rag'batlantirishda moliya mexanizmini tashkil etish va amal qilish xususiyatlarini tahlil qilish;

mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi samaradorligi tahlilini keltirish;

eksportchi korxonalarini soliqdar vositasida rag'batlantirish mexanizmini tahlil qilish;

eksportchi korxonalarini moliyaviy rag'batlantirishning xalqaro tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llarini belgilash;

mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash va asoslash;

O'zbekistonda mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali yanada rivojlantirish borasida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi eksportchi korxonalarining faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish jarayonida shakllanuvchi moliyaviy va iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida guruhlash, tizimli qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv, korrelatsion, regression, ekspert va taqqoslama tahlili, prognozlash,

ma'lumotlarning statistik ishlanmasi, guruhlash usullari va boshqa zamonaviy usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

eksport qilinadigan tovarlar uchun qo'llanilgan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga xorijiy valyuta tushumi kelib tushishidan qat'i nazar hisobga olish tizimini joriy etish lozimligi asoslangan;

xorijdan xorijiy valyutadagi tushum tushishi kechiktirilishiga yo'l qo'ygan eksport qiluvchilar yoki «erkin muomalaga chiqarish» bojxona rejimi bo'yicha tovarlarni respublikaga olib kirish va rasmiylashtirish ishlarini o'z vaqtida ta'minlamagan import qiluvchilar uchun jarima miqdorlarini kamaytirish taklif qilingan;

oxirgi 12 oy davomida 1 million AQSh dollaridan ortiq tayyor to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan korxonalariga asosiy va yordamchi ishlab chiqarishi uchun butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallar olib kirishda bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha foiz hisoblanmagan hamda ularning to'lanishi ta'minlash talab etilmagan holda 120 kunga to'lovni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyatini berish taklif etilgan;

o'zaro aloqador tomonlarning umumiy foydasini kam soliq to'lanadigan davlatlarda (hududlarda) bo'lgan shaxslar foydasiga transfert narxlarni qo'llash yo'li orqali soliqlar to'lashni kamaytirish holatlarini bartaraf etish maqsadida soliq qonunchiligida transfert narxlarni nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish zarurati asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

bir eksport doirasida kelib tushmagan valyuta summasi eksportga yuklangan jami mahsulot narxining 5 foizidan oshmagan taqdirda muddati o'tgan debitor qarzdorlik hisoblanmasligi va tadbirkorlik subyektiga nisbatan jarima qo'llanilmasligi asoslab berilgan;

eksport qiluvchi tashkilotlarga foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmi ulushidan qat'i nazar qo'llanilishi bo'yicha taklif ishlab chiqilgan;

davlatning eksportni rivojlantirish dasturlari ijrosi amaliyotining jahondagi ilg'or tajribasi hamda bu borada O'zbekistonda mavjud imkoniyatlarning tadqiqi asosida eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilgan;

uch yildan ortiq vaqtdan buyon faoliyat yuritayotgan hamda hisoblangan soliqlarni muddatida to'lab kelgan, lekin moliyaviy holatiga ko'ra soliq qarzini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmayotgan tadbirkorlik subyektlariga soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash tartibi ishlab chiqilgan;

uch yildan ortiq vaqtdan buyon tovarlarni import qilish bilan shug'ullanayotgan, bojxona to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini bajarib kelgan, lekin moliyaviy holatiga ko'ra to'lovlarni belgilangan muddatlarda to'lash imkoniyatiga ega bo'lmayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga bojxona to'lovlarini bo'lib-bo'lib to'lash huquqlarini berish asoslangan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va

usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Statistika departamenti ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflardan mamlakat eksport salohiyatini oshirishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etish, bu korxonalarining barqaror iqtisodiy rivojlanishida soliqlarning ahamiyatiga doir maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalarning mamlakat eksport salohiyati darajasini oshirish, shuningdek, moliyaviy vositachilar orqali eksportchi korxonalar faoliyati samaradorligi soliqlar vositasida ta'minlanishiga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish yo'llari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

eksport qilinadigan tovarlar uchun qo'llanilgan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga xorijiy valyuta tushumi kelib tushishidan qat'i nazar hisobga olish tizimini joriy etish lozimligi bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-avgustdagi PF-5231-sonli «Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2021-yil 20-oktabrdagi 18/1-64670-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida o'tgan yil davomida 482 ta to'qimachilik korxonasiga taxminan 2 trillion so'm miqdorida hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi eksportdan valyuta tushumini kutmay qaytarib berilgan;

xorijdan xorijiy valyutadagi tushum tushishi kechiktirilishiga yo'l qo'ygan eksport qiluvchilar yoki «erkin muomalaga chiqarish» bo'xona rejimi bo'yicha tovarlarni respublikaga olib kirish va rasmiylashtirish ishlarini o'z vaqtida ta'minlamagan import qiluvchilar uchun jarima miqdorlarini kamaytirish bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-sonli «Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2021-yil 20-oktabrdagi 18/1-64670-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2021-yil 1-may holatiga xorijdan xorijiy valyutadagi tushum tushishi kechiktirilishiga yo'l qo'ygan 3 559 ta subyektga hisoblangan 3 044,3 mlrd. so'm (289,3 mln. AQSh dollari) miqdoridagi moliyaviy jarimalar kamaytirildi va 7 809 ta subyektning 2,2 mlrd. dollar miqdoridagi debitor qarzdorliklari muddati o'tmagan deb hisoblanib, ularning yuzaga kelishi 2022-yil 1-maydan yangidan hisoblangan;

oxirgi o'n ikki oy davomida 1 million AQSh dollaridan ortiq tayyor to'qimachilik

mahsulotlarini eksport qilgan korxonalariga asosiy va yordamchi ishlab chiqarishi uchun butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallar olib kirishda bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha foiz hisoblanmagan hamda ularning to'lanishi ta'minlash talab etilmagan holda 120 kunga to'lovni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyatini berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentabrdagi PF-6306-sonli «Eksportchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 5-noyabrdagi 06/04-02-32/2217-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida eksportchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, milliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish imkoniyati yaratilgan;

o'zaro aloqador taraflarning umumiy foydasini kam soliq to'lanadigan davlatlarda (hududlarda) bo'lgan shaxslar foydasiga transfert narxlarni qo'llash yo'li orqali soliqlar to'lashni kamaytirish holatlarini bartaraf etish maqsadida soliq qonunchiligida transfert narxlarni nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-sonli «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish kiritish to'g'risida»gi qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2021-yil 20-oktabrdagi 18/1-64670-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mamlakatimizda o'zaro aloqador shaxslar o'rtasida kamaytirilgan narxlarni belgilash orqali soliqdan qochish holatlari bartaraf etilib, respublikamizda amalga oshiriladigan barcha aylanmalarga belgilangan tartibda bozor narxlaridan kelib chiqib, soliq hisoblanib, undirish tartiblari takomillashgan. Bu, o'z navbatida, budjet daromadlarini barqarorlashtirishga imkoniyat yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK e'tirof etgan jumallarda 6 ta, nufuzli xorijiy jumallarda 3 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma'ruza va tezislar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 8 ta paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ularning sinovdan oʻtganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Mamlakat eksport salohiyatining nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida eksport salohiyatining nazariy jihatlari va uni rivojlantirishga taʼsir etuvchi omillar, mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirishning asosiy modellari, Oʻzbekistonda eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali qoʻllab-quvvatlashning asosiy yoʻnalishlari tadqiq etilgan.

Mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish muammolari jamiyat taraqqiyoti uchun oʻta ahamiyatli, shu sababli iqtisodiyot ilmining eng dolzarb va haqli ravishda koʻp tadqiqotchilarning diqqat-eʼtiborini oʻziga jalb etayotgan birinchi darajali muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida «eksport salohiyati» tushunchasi mazmuniga oid yondashuvlar tahlil qilindi va tadqiqotchi tomonidan ularga oid munozarali jihatlar yoritib berilib, muallif talqini ishlab chiqildi: «**Eksport salohiyati** mamlakat, iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalarining tabiiy, infratuzilmali, sanoat, innovatsion va boshqa xarakterdagi qiyosiy ustunliklarni jalb etish orqali jahon miqyosida raqobatbardosh boʻlgan tovarlarni yaratish va eksport qilish qobiliyatidir».

Hozirgi kunda «Respublika eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda mamlakat eksport hajmlarini 30 mlrd. AQSh dollariga yetkazish» masalasi Yangi Oʻzbekistonning 2022-2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish boʻyicha Yoʻl xaritasi<sup>7</sup>ning 28-maqsadi 118-125-bandlarida muhim yoʻnalish sifatida belgilab berilgan.

Eksport salohiyati shakllanishiga muallif taklif qilayotgan yondashuv jahon bozoriga chiqishda mamlakatning raqobatbardosh mavqeyining barqarorligini belgilovchi koʻp qirrali omillarni hisobga oladi (1-rasm).


Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi omillarini kompleks oʻrganish barqaror raqobat tizimini taʼminlash imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki hudud sanoatining eksport salohiyatini baholashning dastlabki asosi boʻlib ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda deyarli «har bir mamlakatda eksportni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari tizimi ishlab chiqilgan boʻlib, bu tizim tashqi bozorda mahalliy eksport qiluvchilarning raqobatbardoshligini taʼminlash, ularni qoʻllab-quvvatlash va manfaatlarini himoya qilish, mamlakat iqtisodiy salohiyatining oʻsishiga erishish, shuningdek, mamlakatning umumiy eksport

---

<sup>7</sup> Yangi Oʻzbekistonning 2022-2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish boʻyicha Yoʻl xaritasi – [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

hajmida yuqori texnologik va ilmiy sigʻimli mahsulotlar ulushini oshirish maqsadida moliyaviy vositalar bilan bir qatorda nomoliyaviy vositalardan, jumladan, savdo-iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va axborot-konsalting va boshqa shu kabi vositalardan foydalanishni nazarga tutadi»<sup>8</sup>.




**1-rasm. Mamlakat eksport salohiyatining shakllanish omillari<sup>9</sup>**

<sup>8</sup> Bunday nomoliyaviy vositalar tashqi bozorlarda mamlakat eksportini kengaytirish va turli xil savdo toʻsiqlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat boʻladi.

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi.

Eksportni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligi – moliyaviy choralar, eksportga ko‘maklashish choralari, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash choralari va proteksionizmga asoslangan savdo-siyosiy choralarni amalga oshirishga bog‘liq (2-rasm).



**2-rasm. Eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy choralari tavsifi<sup>10</sup>**

<sup>10</sup> Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash moliyaviy vositalari, asosan, 2 ta katta guruhga ajratiladi: eksportgacha bo'lgan moliyalashtirish va eksportdan keyingi moliyalashtirish. Shunday qilib, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash moliyaviy vositalari tarkibini quyidagicha izohlash mumkin:

- eksportni davlat tomonidan kreditlash orqali qo'llab-quvvatlash;
- eksport kreditlarini davlat tomonidan sug'urtalash va kafolatlash;
- eksportchilarni davlat tomonidan soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash;
- eksportni davlat tomonidan subsidiyalash orqali qo'llab-quvvatlash;
- kichik biznes eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli-tuman jamg'armalarni tashkil etish va rivojlantirish (1-jadval).

### 1-jadval

#### Eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash moliyaviy vositalari<sup>11</sup>

№	Eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash moliyaviy vositalari nomi	Vositalar tavsifi
1.	Eksportni davlat tomonidan kreditlash orqali qo'llab-quvvatlash	Eksportni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlari orasida kreditlash orqali qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida bunday moliyaviy instrumentdan samarali foydalanish maqsadida eksport kredit agentliklari, eksport-import banklari singari maxsus davlat tashkilotlari tizimi rivojlantirib borilmoqda
2.	Eksport kreditlarini davlat tomonidan sug'urtalash va kafolatlash	Shubhasiz, eksport kreditlarini davlat tomonidan sug'urtalash va kafolatlash eksportchilarni kredit bilan bog'liq xavf-xatarlardan himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi
3.	Eksportchilarni davlat tomonidan soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport faoliyatini yanada rag'batlantirish maqsadida ularga ichki soliq tizimi bo'yicha turli-tuman imtiyozlar taqdim etiladi
4.	Eksportni davlat tomonidan subsidiyalash orqali qo'llab-quvvatlash	Eksportchilar tovarlari xorijiy bozorlarda qulay va raqobatbardosh narxlardan sotilishini ta'minlash maqsadida ularga davlat tomonidan subsidiyalar ajratiladi
5.	Kichik biznes eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli-tuman jamg'armalarni tashkil etish va rivojlantirish	Har bir mamlakat iqtisodiyoti asosini tashkil etuvchi kichik biznes subyektlari eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy institutlar negizida turli xil jamg'armalar tashkil etiladi

Belgilangan vazifalarni hal etishda eksportni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy vositalardan foydalanish muhim o'rin tutadi. Xususan, amalda mahalliy eksportchilarni qo'llab-quvvatlashda soliq va bojxona imtiyozlari, imtiyozli kreditlar berish orqali ularning faoliyatini subsidiyalash, savdoni

<sup>11</sup> Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi.

rivojlantirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyati orqali eksportni rag‘batlantirish singari vositalardan keng foydalanilmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Mahalliy eksportchilarni moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmi tahlili**» deb nomlangan bo‘lib, unda O‘zbekistonda eksport salohiyatini oshirish va rag‘batlantirish, moliya mexanizmini tashkil etish va amal qilishining xususiyatlari, mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi samaradorligi va eksportchi korxonalarini soliqlar vositasida rag‘batlantirish mexanizmining tahlili amalga oshirilgan.

Mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishning quyidagi muhim ahamiyatli jihatlarini alohida ajratish mumkin: birinchidan, eksportning rivojlanishi va diversifikatsiyalanishi mamlakat savdo balansi mustahkamlanishiga olib keladi, milliy valyuta va mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyat barqarorlashuviga ko‘maklashadi. Ikkinchidan, mahalliy korxonalar jahon bozorida raqobat muhitiga moslashishi uchun ishlab chiqariladigan mahsulot xarajatlarini pasaytirish va sifatini oshirish sari harakat qilib, ularning raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omili hisoblanadi. Uchinchidan, valyuta tushumlari oshishi mamlakat uchun yangi texnologiyalarni import qilish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. To‘rtinchidan, eksport hajmi oshishi bilan yangi daromad manbalari va aholi bandligini ta‘minlash imkoniyatlari ham kengayadi.

Mamlakat tashqi savdo siyosati tasnifi bevosita eksport kvotasi, ya’ni eksportning YaIMdagi ulushiga bog‘liq ekanligini 2-jadval ma’lumotlari orqali kuzatish mumkin:

## 2-jadval

### O‘zbekistonda eksport kvotasi va savdo balansining o‘zgarish dinamikasi\* (mlrd. AQSh dollarida)<sup>12</sup>

Ko‘rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
YaIM	62,1	52,6	57,9	57,7	69,2	80,4
Eksport	12,6	13,9	17,5	15,1	16,7	19,3
Eksport kvotasi	20,3	26,4	30,2	26,2	24,1	24,0
Tashqi savdo saldosi	-1,4	-5,5	-6,8	-6,1	-8,8	-11,4

2-jadval ma’lumotlari asosida, qator ijobiy tendensiyalar kuzatilayotganini tasdiqlash mumkin: birinchidan, barcha ko‘rsatkichlar ijrosi 2017-2022-yillarda dinamik xususiyat kasb etgan; ikkinchidan, eksport hajmi (2022-yilda 2017-yildagiga nisbatan 1,5 marta) va eksport kvotasi (2022-yilda 2017-yilga nisbatan 1,2 marta)ning o‘sish sur‘ati YaIM o‘sish sur‘ati (2022-yilda 2017-yilga nisbatan 1,3 marta)dan yuqori bo‘lgan va bunga mamlakatda eksport faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tadbirlarining ijrosi orqali erishilgan (3-jadval).

<sup>12</sup> BMTning savdo va taraqqiyot kengashi – UNCTAD – URL: <https://unctadstat.unctad.org> va Jahon savdo markazining rasmiy sayti – URL: <https://trademap.org>.

**2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida mamlakat eksport faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga oid ayrim moliyaviy xizmatlar dinamikasi (mlrd. AQSh dollarida)<sup>13</sup>**

№	Eksportga moliyaviy xizmat turlari	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
<b>I.</b>	<b>Bank xizmatlari:</b>						
a)	Eksportga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatayotgan banklar	7	7	8	8	11	14
b)	TIF milliy bankida eksport bo‘yicha akkreditivlar, mln. AQSh doll.	468	937	844	1084	898	1382
<b>II.</b>	<b>Sug‘urta xizmatlari:</b>						
a)	Eksportga oid sug‘urta xizmatlari	4	4	5	6	6	8
b)	«O‘zbekinvest» EI MSKning milliy eksportchi va investorlarning kompleks sug‘urta himoyasi bo‘yicha majburiyatlari dinamikasi, mlrd. so‘m	1197,5	3026,6	55276,3	9952,7	14620,2	19891,4
<b>III.</b>	<b>Eksportni subsidiyalash:</b>						
a)	Eksportga berilgan kreditlar foizlari uchun subsidiyalar, mlrd. so‘m	387,4	465,9	581,2	421,1	673,7	712,2
b)	Eksportchilarning eksportoldi va eksportni tashkil etish xarajatlarini subsidiyalash, mlrd. so‘m	-	-	-	-	1421,2	1698,1

Yangi O‘zbekiston sharoitida<sup>14</sup> 2022-2026-yillardagi rivojlanish istiqbollarida uning eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish tizimiga oid tadbirlar, Taraqqiyot strategiyasining 28-maqsadi: «Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish» ijrosini ta’minlashga qaratilgan va u qator vazifalarni hal etishni talab qiladi:

eksportchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish;

mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish;

tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beruvchi standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb etish;

xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish;

avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 milliard AQSh dollariga yetkazish;

turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan, dasturiy ta’minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish;

eksportchi korxonalariga ko‘rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish

<sup>13</sup> BMTning savdo va taraqqiyot kengashi – UNCTAD – URL: <https://unctadstat.unctad.org> va Jahon savdo markazining rasmiy sayti – URL: <https://trademap.org>.

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni.

tizimini takomillashtirish;

eksport tarkibida tayyor va yarimtayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga *GSP+* tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish;

mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6 500 tadan 15 000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga yetkazish;

«Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti» g'oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportchilarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

qo'shni davlatlar bilan chegara hududlarda erkin savdo zonalarini faoliyatini yo'lga qo'yish.

Mazkur vazifalarga asoslanib, mamlakat eksport salohiyatini oshirish istiqbollari yoritish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi (4-jadval).

4-jadval

**2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning eksport salohiyatini rivojlantirish  
«Yo'l xaritasi» vazifalarining asosiy ko'rsatkichlari, (2021-yil – 100 %) <sup>15</sup>**

№	Asosiy ko'rsatkichlar	Yillar				
		2022	2023	2024	2025	2026
1.	Eksport hajmining oshish indeksi	200	225	250	285	310
2.	Eksportchi korxonalar soni oshishi indeksi	125	170	190	210	231
3.	Xususiy sektorning eksportdagi ulushi oshishi indeksi	130	170	225	265	300
4.	Eksport tarkibida tayyor va yarimtayyor mahsulotlar hajmi oshishi indeksi	135	175	230	290	330
5.	Tovarlarining eksport geografiyasining kengayish indeksi	105	115	120	125	130
6.	Avtotransport vositalarining eksporti oshishi indeksi	125	175	225	275	300
7.	Turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan, dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksporti hajmining oshish indeksi	115	130	140	155	170
8.	Eksportning tovar diversifikatsiyasi koeffitsiyenti (1 dan 11 gacha) (2021-yilda ushbu ko'rsatkich 3,96 ni tashkil qilgan)	4,3 dan yuqori	4,9 dan yuqori	5,9 dan yuqori	7,9 dan yuqori	9,9 dan yuqori

Tadqiqot natijalariga ko'ra, muallifning fikricha, eksport faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirishda «eksport faoliyatining soliq imtiyozlari» tushunchasiga quyidagi ta'rifni keltirish maqsadga muvofiq: «**Eksport faoliyatining soliq imtiyozlari** – eksport tovarlari yoki xizmatlarini soliqdan to'liq yoki qisman ozod qilish yo'li bilan ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan beriladigan yengillik va preferensiyalardir».

Bu konsepsiyaning chizmadagi talqini 4-rasmda ko'rsatilgan.

<sup>15</sup> Jadval ma'lumotlari me'yoriy hujjatlarning ma'lumotlarini umumlashtirish asosida tayyorlandi.



**4-rasm. Eksport faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirish<sup>16</sup>**


Tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib chiqishda QQSni qaytarish bir qator xususiyatlarga ega. Birinchidan, eksportga QQSni hisoblash tartibi milliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlarining tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Ikkinchidan, soliq imtiyozlarini bermaslikni eksport bojlari o'rnini bosuvchi vosita sifatida o'rganish mumkin. Uchinchidan, QQSni qaytarishning katta ulushiga ega eksportchilarning ayrim guruhlariga «imtiyozli» taqsimot eksportdagi tarkibiy o'zgarishlarga ta'sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, eksport operatsiyalariga qo'shilgan qiymat solig'i solish mexanizmida imtiyozlardan foydalanish, uni to'lashdan bo'yin tovlash imkoniyatlari davlatdan e'tiborni kuchaytirishni talab etmoqda.

Dissertatsiyaning **“Mamlakat eksport salohiyatini oshirishning jahon amaliyoti va ularni O'zbekistonda yanada rivojlantirish istiqbollari”** nomli uchinchi bobida eksportchi korxonalarini moliyaviy rag'batlantirish bo'yicha xalqaro tajriba, uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari va mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali oshirishning istiqbolli yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Jahon tajribasini o'rganishga ko'ra, ko'plab sanoati rivojlangan mamlakatlar bozor iqtisodiyoti jarayonlariga davlatning aralashuvi, tashqi savdo siyosatini shakllantirish, eksport strategiyasi va rejalashtirish elementlarini joriy etishning obyektiv zarurligiga empirik tarzda kelgan.

<sup>15</sup> Adabiyotlar tadqiqi asosida muallif ishlanmasi.

Rivojlangan mamlakatlar guruhida tashqi davlat sanoat siyosatining izchil rivojlanish jarayonlari 5-rasmda tasvirlangan.



**5-rasm. Eksportni rag'batlantirish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida xorijiy davlatlar sanoat siyosati evolyutsiyasi<sup>17</sup>**

Muallifning fikricha, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zamonaviy sanoat siyosatining bir qismi sifatida raqobatbardoshlikni mustahkamlash, mamlakatning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvi samaradorligini oshirish va jahon bozorida muvaffaqiyatlarga erishishga qaratilgan milliy iqtisodiy strategiyani amalga oshirish jarayonining yakuniy bo'g'ini sifatida o'rganilishi lozim.

Hozirgi bosqichda rivojlangan yetakchi mamlakatlarning (AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Shvetsiya, Norvegiya) davlat sanoat siyosatini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchi, davlat sanoat siyosatini modernizatsiyalash va kengaytirishni ta'minlashga qaratilgan milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadida sanoat ishlab chiqarishi va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ikkinchi, sanoati rivojlangan mamlakatlarning har biri davlat sanoat siyosatining bir qismi sifatida o'z ustuvor yo'nalishlari va aniq maqsadlariga ega.

Xorijiy amaliyotdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining milliy sanoat siyosatini ishlab chiqishda uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari yig'indisi, jamiyatdagi inqirozli hodisalarni bartaraf etish bo'yicha dolzarb vazifalarni hisobga olish zarur. Xususan, milliy sanoat siyosatini

<sup>17</sup> Adabiyotlar tadqiqi asosida muallif ishlanmasi.

shakllantirishning asosiy tamoyillari, muallifning fikricha, moliyaviy resurslarni safarbar qilish muammolarini hal etishga qaratilishi lozim.

Hozirgi kunda, birinchi navbatda, to'g'ridan to'g'ri maqsadli davlat moliyalashtirish mexanizmlarini ustun qo'ygan holda raqobatbardosh mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash orqali bu maqsadga erishish mumkin, buning uchun eksportga yo'naltirilgan dasturlar hamda xorijiy raqobatga qarshi kurash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Shunday qilib, jahon amaliyotiga ko'ra, eksportni rag'batlantirish va raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashga oqilona yo'naltirilgan davlat mablag'lari vaqtinchalik qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan milliy ishlab chiqaruvchilar uchun boshqa faoliyat turlariga yo'naltirilgan investitsiyalarga nisbatan ancha tez samara beradi.

Muallifning fikricha, bunday sharoitda O'zbekiston Respublikasi uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan davlat kafolatlari, subsidiyalik kreditlar va grantlar bilan ta'minlashni maqsadli qo'llab-quvvatlash afzalroq, chunki bu cheklangan moliyalashtirishni tez sur'atlar bilan samarali qaytimni ta'minlovchi o'sish nuqtalariga jamlash imkonini beradi.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalariga ko'ra ta'kidlash kerakki, milliy tovar va xizmatlar eksporti hajmi oshishini rag'batlantirish, ularning raqobatbardoshlik darajasini oshirish masalalari sanoati rivojlangan mamlakatlar tashqi iqtisodiy siyosatida muhim va ustuvor o'rin tutadi. Har bir davlat tomonidan usul va vositalarni tanlab, ishlab chiqilgan eksport strategiyasi doirasida, ularning milliy xususiyatlari, iqtisodiy rivojlanish darajasi va uning oldida turgan vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Xorijiy amaliyot va eksportchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi tarkibidan foydalanishning hozirgi bosqichda qo'llanishi ko'rsatdiki, eksportni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy-iqtisodiy vositalaridan faol foydalanish bilan bir qatorda, sohada axborot-maslahat xizmatlari majmuyi ko'rsatilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat, kichik va o'rta eksport qiluvchi korxonalariga ko'maklashish, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan innovatsiyalarni rivojlantirish ko'zda tutilgan (5-jadval).

XX asrning 80-90-yillarida ilm-fan, ta'lim, ilg'or eksportga yo'naltirilgan ilm-fanni ko'p talab qiluvchi tarmoqlar rivojlanishiga asoslangan dinamik o'sishni Janubi-sharqiy Osiyoning yangi sanoat mamlakatlari va mintaqalari (Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur, Gonkong) ko'rsatdi. Masalan, Xitoyda tadqiqot va ishlanmalarga 60 milliard AQSh dollari sarflanadi, bu AQSh va Yaponiyada yillik ilmiy tadqiqot ishlariga xarajatlarning oltidan bir qismini tashkil etadi.

**Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi eksportchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimidagi chora-tadbirlarning qiyosiy pozitsiyalari<sup>18</sup>**

Mamlakatlar	Eksportchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash usul va vositalari							
	Kreditlash	Sug‘urtalash va kafolatlash	Soliq va boshqa imtiyozlar	Subsidyalash	Nomoliyaviy tadbirlar	Kichik biznes eksportiga ko‘maklashuv	Eksportni kengaytirish uchun chetga kapital chiqarilishini rag‘batlantirish	Innovatsion soha va innovatsion eksportni rag‘batlantirish
AQSh	***	***	**	*	***	***	**	***
Yaponiya	***	***	***	*	***	***	**	***
Germaniya	***	***	**	**	***	***	***	***
Fransiya	***	***	**	**	***	***	**	***
Italiya	***	***	**	**	***	***	**	***
Buyuk Britaniya	**	**	**	*	***	***	**	***
Kanada	**	**	**	**	***	***	*	**
Shvetsiya	*	**	**	*	***	***	**	***
Ispaniya	**	***	**	*	**	**	**	***
Gollandiya	**	**	**	**	***	***	**	***
Avstriya	***	**	*	*	**	**	*	**
Daniya	**	**	*	*	***	***	*	***

